IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
**Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026**

# QADIMGI TARIXIY MANBALARDA AMUDARYO GEOGRAFIK O‘ZAN, NOMLAR TARIXI VA SIVILIZATSIYAGA TA’SIRI

**Bekbo‘tayev Behruz Asqar o‘g‘li**
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Tarixshunoslik, manbashunoslik va
tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi
1-kurs magistranti
ORCID: 0009-0009-4835-9542
behruzbekbutayev22@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23392446

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Amudaryo daryosining qadimgi nomlari Oks, Araks, Jayhun, Vaxsh, Balx daryosi kabi atamalarning kelib chiqishi va ularning tarixiy manbalardagi qo‘llanilishi keng ko‘lamda ko‘rib chiqiladi. Antik yunon-rim, Avesto, fors, xitoy va arab manbalarida daryoning geografik holati, oqim yo‘nalishlari hamda Orol va Kaspiy dengizlari bilan aloqasi tahlil etiladi. Strabon, Gerodot, Gekatey, Ptolomey, Arrian, Pliniy Katta, S. P. Tolstov, V. V. Bartold, Ya. G‘ulomov, I.V. Pyankov, N.A. Egamberdiyeva va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy usulda o‘rganiladi. Albert Herrmann va V.V. Bartold o‘rtasidagi mashhur ilmiy bahs ham alohida tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida Amudaryoning nafaqat tabiiy boylik, balki Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyoti, iqtisodiy hayoti, diniy-madaniy merosi va sivilizatsiya shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Amudaryo, Oks, Araks, Jayhun, Vaxsh, Balx daryosi, Avesto, Gekatey, Gerodot, Polibiy, Arrian, Ptolomey, Pliniy, Uzboy, Sariqamish, Xorazm, Orol dengizi, Kaspiy dengizi, Bartold, Herrmann.

**Annotation**

This article provides a comprehensive examination of the ancient names of the Amu Darya River Oxus, Araxes, Jayhun, Vakhsh, and Balkh River tracing their origins and usage across historical sources. The geographic position of the river, the directions of its channels, and its connections to the Aral and Caspian Seas are analyzed through Greco-Roman, Avestan, Persian, Chinese, and Arab sources. The scholarly views of Strabo, Herodotus, Hecataeus, Ptolemy, Arrian, Pliny the Elder, S. P. Tolstov, V. V. Barthold, Ya. Gulomov, I. V. Pyankow, N. A. Egamberdiyeva, and others are studied comparatively. The famous scientific debate between Albert Herrmann and V. V. Barthold is also analyzed separately. The study concludes that the Amu Darya served not only as a natural resource but as a crucial factor in the historical development, economic life, religious-cultural heritage, and civilization formation of the peoples of Central Asia.

**Keywords:** Amu Darya, Oxus, Araxes, Jayhun, Vakhsh, Balkh River, Avesta, Hecataeus, Herodotus, Polybius, Arrian, Ptolemy, Pliny, Uzboy, Sarykamysh, Khwarazm, Aral Sea, Caspian Sea, Barthold, Herrmann.

## KIRISH

Insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti tabiiy shart-sharoit va geografik joylashuvga bog‘liq holda kechgan. Barcha qadimgi sivilizatsiyalar Misr, Mesopotamiya, Hind vodiysi daryolar atrofida shakllangan. Markaziy Osiyoda ham ana shunday tizim Amudaryo atrofida vujudga kelgan. O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo qadim tarixga, boy merosga ega deyishimizga shubha yo‘q; Amudaryo esa bu tarixning asosiy suv arteriyasi, sivilizatsiyaning tirik tomiri bo‘lib xizmat qilgan.

Amudaryo (qadimgi Oks, Araks yoki Oksos) Markaziy Osiyoning eng yirik daryosi bo‘lib, Pomir tog‘laridan boshlanib, Orol dengiziga quyiladi. Daryoning uzunligi taxminan 2 574 km, havzasi esa 465 000 km² ni tashkil etadi.[1] U tarixan nafaqat suv manbai, balki savdo yo‘llari, siyosiy chegaralar va sivilizatsiyalar tutashgan hudud sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Arxeologik manbalar, tarixiy yozma manbalar, sayohatchilar kundaliklari va ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish va ularga ob’ektiv baho berish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Ushbu maqola Amudaryoga oid antik yunon-rim, Avesto, fors, xitoy va arab manbalarini keng tahlil etishga bag‘ishlangan. Daryoning geografik o‘rni, tarixiy davrlardagi oqim yo‘nalishlari, Kaspiy dengiziga quyilish muammosi, Xorazm sivilizatsiyasi bilan aloqasi hamda nomlar tarixiyatini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan. Bundan tashqari, ushbu mavzuda yuz bergan eng muhim ilmiy bahs V. V. Bartold va A. Herrmann o‘rtasidagi tortishuv ham alohida ko‘rib chiqiladi.

### Dehqonchilik va manzillar shakllanishida Amudaryoning o‘rni

Markaziy Osiyo hududida 12 000 ga yaqin daryo mavjud bo‘lib, ular hududda notekis joylashgan; tekislik qismida daryolar juda kam.[2] Amudaryo Markaziy Osiyodagi eng sersuv daryo bo‘lib, asosan ekin dalalarini sug‘orishga sarf bo‘ladi. Bundan tashqari bug‘lanadi va yerga singib ketadi. Olima N. A. Egamberdiyeva[3] "Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati" asarida ta‘kidlaganidek, Amudaryo baland muzliklardan tog‘ oralab kelar ekan, o‘zi bilan yerga unum beruvchi loyqani ham olib kelgan; o‘simlik va hayvonot dunyosiga boy bu hudud insoniyatning ilk manzilgohlari uchun qulay sharoit yaratgan.

Insonlar soni ortishi natijasida dehqonchilik mahsulotlariga bo‘lgan talab oshgan va bu suvga bo'lgan ehtiyojni orttirgan. Sug‘orma dehqonchilik rivojlanib borgan. Agar hududga suvning kelishi kamaya boshlasa, aholi sun’iy sug‘orish tizimini takomillashtirib, suvning dalalarga yetarli darajada yetib borishini ta’minlagan.[4]

Y. G‘ulomovAmudaryoni Nil daryosiga qiyoslab, uning deltaviy tizimi va mavsumiy toshqinlari Xorazm vohasi ijtimoiy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganini asoslab bergan.[5] Nil daryosi Qadimgi Misrga qanday ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, Amudaryo ham Xorazm va Baqtriya

[1] Abdunazarov L. M. Markaziy Osiyo geografiyasi. – Toshkent: «Sharofat Nur Fayz», 2020. – B. 48.
[2] Abdunazarov L. M. Markaziy Osiyo geografiyasi. – Toshkent: «Sharofat Nur Fayz», 2020. – B. 49.
[3] . Egamberdiyeva N. A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar). – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020. – B. 6.
[4] Egamberdiyeva N. A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar). – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020. – B. 84.
[5] Ғуломов Я. Г. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: ЎзФАН, 1959. – Б. 19.

uchun xuddi shunday hayotiy o‘rin egallagan. Daryoning toshqin davrlari ekinzorlarni yangi loyqa bilan boyitib, hosildorlikni oshirgan. Bu esa Xorazm vohasida ilk shahar va davlatlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, Amudaryo havzasida miloddan avvalgi IV ming yillikdan boshlab aholi punktlari vujudga kela boshlagan. Anov, Namozgoh va boshqa qadimgi manzilgohlar aynan suv manbalari atrofida joylashgan. Sug‘orma dehqonchilik tizimi esa miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda yuksak darajada rivojlangan.[6]

**Antik yunon-rim manbalari: Oks, Araks va daryo muammosi**

Amudaryoning "Oks" nomi bilan tilga olinishi ilk bor miloddan avvalgi V asrga oid va Gekateyga nisbat berilgan "Periegezis" asarida uchraydi. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, Oks daryosi Araks daryosini qabul qilib, Kaspiy dengiziga quyilgan.[7] Kaspiy dengizining sharqidagi hududlarni tasvirlagan yunon va rim mualliflari — Gekatey, Gerodot, Polibiy, Arrian, Ptolomey va boshqalar Oks (Amudaryo) haqida yozgan bo‘lsalar-da, bu daryoning qaysi dengizga quyilishi masalasida aniq ma’lumot bermaganlar. Ayrim manbalarda Orol dengiziga, boshqalarida Kaspiy dengiziga quyilishi qayd etilgan. Bu noaniqlik keyingi asrlarda ko‘plab ilmiy munozaralarga sabab bo‘ldi.

Gerodot o‘zining "Tarix" asarida Amudaryoni Araks deb ataydi.[8] Gerodotning bu ma’lumotni Gekatey Miletlikdan olganligi haqida ham qarash mavjud. I. V. Pyankov[9] o‘z tadqiqotida ko‘rsatib berganidek, Gekatey va Gerodot ma’lumotlari ko‘proq Sariqamish deltasiga mos keladi. Gerodot massagetlar mamlakati haqida yozar ekan, bu qabila Araks (Amudaryo) bo‘ylarida yashaganini va ularning Kir II bilan janglarini tasvirlaydi. Massagat malikasi To‘maris  Kirni mag‘lub etganligi haqidagi hikoya ushbu hudud bo‘yidagi qadimgi xalqlarning kuchli harbiy an’analarini ko‘rsatadi.

Strabon o‘zining "Geografiya" asarida Amudaryoni Araks deb ataydi va uning suvlari "suvlar mamlakatiga" — hozirgi Orol dengiziga singishini yozadi, biroq uning bir o‘zani Girkan (Kaspiy) dengiziga quyiladi deb taxmin qiladi.[10] U massagetlarni 4 qismga bo‘ladi: tog'larda, tekisliklarda, botqoqliklarda va botqoqliklardagi orollarda yashaydigan qismlar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Amudaryo atrofidagi barcha tabiiy geografik zonalar aholi tomonidan o‘zlashtirilgan edi. Strabon shuningdek Oks orqali Hindistonga borish mumkinligi va bu daryoning Hind daryosidan keyingi eng yirik daryo ekanligini ham ta’kidlagan.[11]

Ptolomeyning (mil. 100–170) "Geografiya" atlasidagi 22-kartasida O‘rta Osiyo hududlari aks etgan; bu kartada Amudaryo va uning irmoqlari Oks nomi bilan ataladi va Kaspiy dengiziga quyilishi tasvirlangan. Ptolomey kartografiyasi o‘z davrining eng ilg‘or geografik tasavvurlarini ifodalagan bo‘lsa-da, O‘rta Osiyo hududlari bo‘yicha ma’lumotlar ko‘pincha noaniq yoki xato

[6] Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. – Toshkent: «Tafakkur», 2016. – B. 254.
[7] Маджидов О. Ш. Куда впадала река Амударья: палеогеографическое исследование. – Душанбе: Центральноазиатский журнал географических исследований, 2021. – С. 3–4.
[8] Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: «ADIB», 2013. – B. 116.
[9] Пьянков И. В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – Санкт-Петербург: «Петербургское лингвистическое общество», 2013. – С. 99.
[10] Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent: «Noshir», 2010. – B. 49.
[11] Страбона. Γεωγραφία. Въ семнадцати книгахъ (переводъ съ греческаго Р. Г. Мищенка). – Москва: «К. Т. Солдатенкова», 1879. – С. 519.

bo‘lib chiqardi. Bunining asosiy sababi yunon va rim mualliflarining bu hududlarga bevosita sayohat qilmaganligi va ma’lumotlarni bilvosita manbalardan olganligi edi.

Pliniy (mil. 23–79) o'zining "Naturalis Historia" (Tabiiy tarix) asarida ham Oks daryosini Kaspiy dengiziga quyiladigan daryo sifatida ko‘rsatib, uning uzunligi va oqim xususiyatlarini tasvirlagan.[12] Pliniyning ma’lumotlari asosan Patrokl ekspeditsiyasi natijalariga asoslanadi. Polibiy (mil. av. 200–118) esa "Umumiy tarix" asarida Oks daryosini tilga olib, uning Kaspiy dengiziga quyilishi masalasida shubha bildirmagan. Bu esa antik davr olimlarining aksariyati ushbu farazni ma’lum darajada haqiqat deb qabul qilganligini ko‘rsatadi.

Amudaryoning Aleksandr yurishlaridagi ahamiyatini, avvalo, uning tabiiy to‘siq sifatidagi xususiyati orqali ko‘rish mumkin. Arrian ma’lumotlariga ko‘ra, Oksning kengligi taxminan olti stadiy bo‘lgan, daryo tubi qumli, oqimi esa nihoyatda tez kechgan. Shu sababli daryoning tubiga qoqilgan qoziqlar ham kuchli oqim ta’sirida sug‘urilib ketgan. [13]Bunday tabiiy sharoit qo‘shin uchun daryoni oddiy kechib o‘tish imkoniyatini deyarli istisno qilgan. Bundan tashqari, hududda qurilish uchun zarur yog‘ochning kamligi Aleksandr qo‘shinining daryo ustidan an’anaviy ko‘prik qurish imkoniyatini yanada cheklagan.

Y.Xarmataning Behistun yozuvlari beshinchi ustun matnidagi tadqiqotida Doroning yurishlari Kir II singari Araxsha (Araks) daryosi — ya’ni Uzboy hududlari tomon bo‘lganligi ko‘rsatilgan. Eron shohi Kayxusravning o‘z askarlariga Araks daryosi ustida ko‘prik qurishga buyruq bergani haqidagi ma’lumot ham bu bilan bog‘liq.[14] Bu ma’lumot Amudaryo (Araks) O‘rta Osiyo va Eron o‘rtasidagi siyosiy-harbiy chegara sifatida ham ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi.

**Avesto va fors manbalari: Datiya daryosi va diniy ahamiyat**

S. P. Tolstovning[15] fikricha, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da keltirilgan Datiya (Vanxvi Datyo) daryosi hozirgi Amudaryo ekanligi aytiladi. Avestoning "Videvdat" kitobida Vanxvi Datyo daryosidagi Aryonam Vayjoga asos solingani haqida gap boradi.[16] "Qish oylarining suvlari sovuq, yerlari sovuq; qish oxirida u yerda katta toshqin suv paydo bo‘ladi" — bu ta’rif Amudaryoning mavsumiy toshqinlarini va Xorazm hududiga ta’sirini yorqin ifodalaydi.

Avesto matni Amudaryo vodiysi qadimgi eroniy xalqlar, jumladan zardushtiylikning vatani bo‘lganligi haqida muhim guvohlik beradi. Aryonam Vayjah — zardushtiylik an’anasidagi "oriylarning muqaddas makoni" — aynan Amudaryo yuqori oqimi atrofida joylashgan degan faraz ilmiy doirada keng muhokama qilinadi. Bu esa daryoning nafaqat tabiiy, balki diniy-ma’naviy ongda ham markaziy o‘rin tutganini ko‘rsatadi.[17]

A. Sagdullayev[18] o‘zining "Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda" asarida Avesto ma’lumotlarini tahlil etib, Xorazm va Baqtriya hududlari Amudaryoning ikkala qirg‘og‘ida joylashgan qadimgi madaniyat markazlari bo‘lganligini ko‘rsatib bergan. Fors Ahamoniylar

[12] Pliniy. Naturalis Historia. VI kitob, 18-bob. Ed. K. Mayhoff. – Leipzig: Teubner, 1906.
[13] Arrian. The Anabasis of Alexander: The history of the wars and conquests of Alexander the Great (E. J. Chinnock, Trans.). Hodder and Stoughton. 1884. – P. 200.
[14] Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: «ADIB», 2013. – B. 116.
[15] Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва: «Издание МГУ», 1948. – С. 20.
[16] Сагдуллаев А. Қадимги ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996. – Б. 21.
[17] Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва: «Издание МГУ», 1948. – С. 22.
[18] Сагдуллаев А. Қадимги ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996. – Б. 19-24.

sulolasi (mil. av. 558–330) davrida Amudaryo imperiyaning sharqiy chegarasini belgilab, Xorazm, So‘g‘d va Baqtriya viloyatlari Amudaryo havzasida joylashgan. Bu viloyatlardan yig‘ilgan soliqlar haqidagi ma’lumotlar Behistun yozuvlarida va Gerodotning "Tarix" ida keltirilgan.

Sosoniylar davrida (mil. 224–651) daryo Vah-rod yoki Bah-rod nomi bilan atalgan. I. I. Xlopinning Oksni Atrek daryosiga to‘g‘ri keladi degan qarashlariga kelsak, bu faraz tarixiy-geografik nuqtai nazardan qabul qilinmagan, chunki Atrek daryosi Amudaryodan ancha kichik va janubiy yo‘nalishda joylashgan.[19]

**Xitoy va Arab manbalarida**

Xitoy manbalarida Amudaryo Kui-shui va Wu-hu nomlari bilan uchraydi.[20] "Shiji" (Tarixiy yozuvlar, Sima Tsyan, mil. av. 109–91-yillar) va "Xanshu" (Xan sulolasi tarixi) asarlarida Amudaryo havzasidagi Daxya (Baqtriya) va Kangju (Xorazm atrofidagi hudud) davlatlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Xan sulolasi elchisi Chjan Tsyan (mil. av. 138 va 119-yillardagi safarlari) O‘rta Osiyo haqida to‘plagan ma’lumotlar xitoy manbalaridagi dastlabki va ishonchli tarixiy guvohliklardan biri hisoblanadi.

N. Y. Bichurinning (Yakinf) "Qadimgi davrda O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma’lumotlar to‘plami"[21] asarida Xitoy manbalaridan olingan Amudaryo havzasiga oid ma’lumotlar to‘plangan. Bu manbalarda Buyuk Ipak yo‘li savdosida Amudaryo muhim geografik yo‘nalish bo‘lganligi ko‘rsatilgan.

Markaziy Osiyo haqida ma’lumot beruvchi X asr davri manbalardan biri “Hudud ul-olam” asaridir. Unda Jayhun (Amudaryo) daryosi Vaxon hududidan oqib kelishi so‘ngra Xutalon, Toxariston, Balx, Xuroson va Movarounnahr hududlaridan o‘tib Xorazm(Orol) dengiziga quyilishi aytiladi.[22]

Geograf olim Istahriy Kitob al-Masolik va’l Mamolik asarida shunday bayon qiladi: “Xorazm Jayxunning butun foydasini ola bilgan mamlakatdir”.[23]

Arab manbalarida Amudaryo asosan Balx daryosi va Jayhun nomi bilan uchraydi.[24] Arab geograflari IX–XI asrlarda Markaziy Osiyo haqida, jumladan Amudaryo (Jayhun) haqida batafsil va ishonchli ma’lumotlar yozib qoldirgan. Bu davr manbalari antik davr guvohliklariga nisbatan ancha aniq va to‘liq hisoblanadi, chunki arab savdogarlari va geograflari bu hududlarga bevosita sayohat qilgan.

Ibn Xurdodbek o‘zining Kitāb al-masālik wa-l-mamālik (Yo‘llar va mamlakatlar kitobi) asarida Jayhun daryosining yo‘nalishi va unga tutash hududlarni batafsil tavsiflagan. Bu asar O‘rta Osiyo yo‘llari haqidagi eng qadimgi arab geografik manbalari qatoriga kiradi.[25]

---

[19] Spuler B. «ĀMŪ DARYĀ». Encyclopaedia Iranica. 15 Dec. 1989. URL: https://iranicaonline.org/articles/amu-darya

[20] Spuler B. «ĀMŪ DARYĀ». Encyclopaedia Iranica. 15 Dec. 1989. URL: https://iranicaonline.org/articles/amu-darya

[21] Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. – Санкт-Петербург, 1851. – С. 147–162.

[22] Ҳудуд ул-олам (Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов). – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2007.Б. 8.

[23] Ғуломов Я. Г. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: ЎзФАН, 1959. – Б. 5.

[24] Emel E. Amuderya. İslam Ansiklopedisi. – İstanbul, 1991. – S. 98. URL: https://islamansiklopedisi.org.tr/amuderya

[25] Ibn Xurdodbeh. Kitāb al-masālik wa-l-mamālik. Tarj. M. J. de Goeje. – Leiden: Brill, 1889. – B. 24–27.

Maqdisiy o‘zining Aḥsan al-taqāsīm fī ma’rifat al-aqālīm (Iqlimlarni bilish uchun eng yaxshi taqsimot) asarida Xorazm hududi haqida ma’lumot keltirgan. Maqdisiy Xorazm shaharlarini, ularning savdo aloqalarini va Jayhun daryosiga bo‘lgan munosabatini batafsil tasvirlab bergan.[26]

Al-Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va boshqa asarlarida Xorazmning geografiyasini, suv yo‘llarini va tarixiy o‘zgarishlarini ilmiy aniqlik bilan tavsiflagan. U Xorazm madaniyatini chuqur o‘rganib, uning Amudaryo bilan aloqasini tarixiy-geografik nuqtai nazardan baholagan.[27] Yoqut al-Hamaviy (1179–1229) Mu’jam al-buldān (Mamlakatlar lug‘ati) asarida Jayhun daryosining o‘rta asrlardagi holati, Orol dengiziga quyilishi va Xorazm hududidagi suv tarmoqlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan.[28]

Al-Ma’sudiy (896–956) Muruj al-Dhahab wa-Ma’adin al-Jawhar" ("Oltin o‘tloqlar va qimmatbaho toshlar konlari") asarida Jayhun atrofidagi xalqlar va savdo yo‘llari haqida ma’lumot bergan. Bu manbalar majmuasi XIII–XVI asrlarda Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilganligi haqidagi V. V. Bartold[29] tomonidan aniqlangan faktni tarixiy nuqtai nazardan tasdiqlash imkonini beradi.

Daryoning hozirgi "Amudaryo" nomiga kelsak, B. Spuler[30] fikricha, bu nom Amol shahridan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Bu gidronim asosan XIV–XV asrlardan gidronim sifatida qo‘llana boshlagan bo‘lib, Amol shahri hozirgi Turkmanobod viloyatidagi Chorjo‘y shahriga to‘g‘ri keladi. Emel E. İslam Ansiklopedisidagi maqolasida[31] bu nomlanish jarayonini fors-tojik va turk-mo‘g‘ul ta’sirlari bilan bog‘laydi.

**Amudaryoning qadimgi gidrografiyasi masalasida tarixiy va geologik yondashuvlar**

Amudaryo tarixini o‘rganishdagi eng munozarali masalalardan biri daryoning qadimgi va o‘rta asrlardagi Kaspiy dengiziga quyilishi muammosidir. Bugungi kunda qurib qolgan Uzboy vodiysi Amudaryoning Kaspiy dengiziga oqib borgan qadimgi irmog‘ining izlari deb talqin etiladi. XIX asrda rus tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan bu vodiy haqida ilmiy bahs hanuz davom etmoqda.

V. V. Bartold 1902-yilda nashr etilgan asarida tarixiy manbalarga tayanib Amudaryoning o‘rta asrlarda (XIII–XVI asrlar) Uzboy orqali Kaspiy dengiziga quyilgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi nazariyani ilgari surgan. Biroq bu nazariya keyinchalik sovet geologlari tomonidan qisman rad etilgan va masala ilmiy jihatdan hamon bahsli bo‘lib qolmoqda.[32] 1910-yilda Leypsigda qayta nashr etilgan bu asar xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etildi va metodologik jihatdan muhim ahamiyatini saqlab qolmoqda.

[26] Maqdisiy. Aḥsan al-taqāsīm fī ma'rifat al-aqālīm. Bibl. Geogr. Arab. III. Ed. M. J. de Goeje. – Leiden: Brill, 1877.
[27] Беруний Абу Райҳон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар / Танланган асарлар. – 1-ж. – Тошкент: Ўзбекистон ФА, 1968.
[28] Yoqut al-Hamaviy. Mu‘jam al-buldān. J. II. – Bayrut: Dār Ṣādir, 1977.
[29] Bartold V. V. Записки Восточного отделения Императорского Русского Археологического общества. Т. XXII. – Петроград, 1915. – С. 357–361.
[30] Spuler B. «ĀMŪ DARYĀ». Encyclopaedia Iranica. 15 Dec. 1989. URL: https://iranicaonline.org/articles/amu-darya
[31] Emel E. Amuderya. İslam Ansiklopedisi. – İstanbul, 1991. – S. 98. URL: https://islamansiklopedisi.org.tr/amuderya
[32] Бартольд В. В. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времён до XVII века // Сочинения. – Т. III. – М.: Наука, 1965. – Б. 36–45.

Obruchevning "Закаспийская низменность" (Kaspiybo‘yi pasttekisligi) nomli geologik tadqiqoti ham Amudaryo masalasiga muhim hissa qo‘shgan. Garchi uning ba’zi xulosalari ixtisoschilar tomonidan dastlab rad etilgan bo‘lsa-da, keyinchalik tarixiy tadqiqotlar natijalarining ta’sirida qayta baholangan.[33] L. S. Borgning[34] "Аральское море" asarida ta’kidlanganidek Bartoldning monografiyasi Konshine ko‘targan geologik bahsni yakuniga yetkazgan. Bu esa tarixiy tadqiqotning o‘z sohasidan chiqib, qo‘shni fanlar uchun ham hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkinligini ko‘rsatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Bartoldning tarixiy tadqiqotlari geologik tortishuvni ham hal etishga yordam bergan.

Albert Herrmann[35] 1914-yilda nashr etilgan “Alte Geographie des unteren Oxusgebiets” asarida Bartoldning Amudaryoning Kaspiy dengizi bilan aloqasi haqidagi xulosalarini qadimgi davrlarga ham tatbiq etishga uringan. U Aristobul, Patrokl va Pliniy kabi antik mualliflar ma’lumotlariga tayanib, Baqtriyadan Kaspiy va Kavkaz orqali Qora dengiz havzasigacha yetuvchi suv yo‘li mavjud bo‘lgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi farazni ilgari surgan. Bartold esa bu qarashni tanqid qilib, Strabon asarida saqlanib qolgan qadimgi ma’lumotlar bunday rekonstruksiyani tasdiqlamasligini ta’kidlagan.[36]

Ushbu ilmiy bahs metodologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Bartold ta’kidlaganidek: tarixiy tanqid dalillari ba’zan "aniq fanlar" metodlaridan ham katta ishonch bilan ilmiy masalalarni hal eta oladi.[37] Bu esa tarixiy geografiya va manbashunos tadqiqotlarning mustaqil ilmiy qimmatini isbotlaydi.

## VIII. AMUDARYONING NOMLARI TARIXIYATI. QIYOSIY TAHLIL

Amudaryo tarixi bo'yicha tadqiqotlarda daryoning turli davrlardagi nomlari alohida o‘rganilishi lozim, chunki bu nomlar nafaqat lingvistik, balki tarixiy-madaniy ahamiyat ham kasb etadi. Quyida daryoning asosiy nomlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. **Oks / Oksos** — yunon-rim manbalarida qo‘llangan nom. Miloddan avvalgi V asrdan boshlab antik davr yozuvlarida uchraydi. Ilk marta Gekateyda qayd etilgan. Keyinchalik Strabon, Arrian, Ptolomey, Pliniy asarlarida ham keng qo‘llanilgan. Bu nom, ehtimol, qadimgi eroniy "auksus" — "o‘suvchi, ko‘payuvchi" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin.

2. **Araks** — Gerodot va ba’zi boshqa antik manbalarda qo‘llangan nom. Bu nom Kavkaz mintaqasidagi Araks daryosi bilan chalkashtirib yuborilgan va ko'p ilmiy munozaralarga sabab bo‘lgan. Gerodotning "Araks"i qaysi daryo ekanligini aniqlash hali ham ilmiy bahslar mavzusi hisoblanadi.

3. **Datiya / Vanxvi Dat'yo** — Avesto manbasidagi nom. Zardushtiylik an’anasida muqaddas daryo sifatida talqin etilgan. Tolstov va boshqa tadqiqotchilar bu nomni Amudaryo bilan bog‘laydi.

[33] Obruchev V. A. Закаспийская низменность. Зап. И. Р. Г. Общ. по общей геогр. Т. XX, № 3. – Санкт-Петербург, 1890.
[34] Borg L. S. Аральское море. – Санкт-Петербург: Императорское Русское Географическое общество, 1908.
[35] Herrmann A. Alte Geographie des unteren Oxusgebiets. – Berlin: Weidmann, 1914 (Abhandl. der kön. Ges. der Wiss. zu Göttingen, phil.-hist. Klasse, Neue Folge, Bd. XV, № 4). – S. 53.
[36] Страбона. Γεωγραφία. Въ семнадцати книгахъ (переводъ съ греческаго Р. Г. Мищенка). – Москва: «К. Т. Солдатенкова», 1879. – С. 520.
[37] Бартольд В. В. Сведения об Аральском море и низовьях Аму-Дарьи с древнейших времён до XVII века // Сочинения. – Т. III. – М.: Наука, 1965. – Б. 36–45.

4. **Vah-rod / Bah-rod** — Sosoniylar davridagi fors nomi. Bu nom o‘rta fors (pahlaviy) tilida “daryoning narigi tomoni”, “yaxshi daryo” ma’nosini anglatishi mumkin.

5. **Kui-shui / Wu-hu** — xitoy manbalaridagi nomlar. Buyuk Ipak yo‘li davrida xitoy geograflari bu nomlarni qo‘llaganlar.

6. **Jayhun / Nahr al-Jayhun** — arab manbalaridagi nom. Arab geograflari IX asrdan boshlab bu nomni keng qo‘llagan.

7. **Balx daryosi** — arab va fors manbalarida uchraydigan nom. Daryoning Balx (hozirgi Afg‘onistondagi Balx shahri) yaqinidan o‘tishi bilan bog‘liq.

8. **Vaxsh** — Amudaryoning shimoliy irmoqlaridan birining nomi. Ba’zi manbalarda butun daryoga nisbatan ham qo‘llangan.

9. **Amudaryo** — hozirgi nom. XIV–XV asrlardan boshlab keng qo‘llanila boshlagan. "Amu" Amol shahridan, "daryo" esa fors-tojikcha "daryo" so‘zidan kelib chiqqan.[39]

## XULOSA

Amudaryo daryosi Markaziy Osiyo tabiiy-geografik tizimining eng muhim gidrologik asosini tashkil etib, insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, daryo nafaqat suv resursi sifatida, balki iqtisodiy, siyosiy, diniy va madaniy jarayonlarni belgilovchi strategik omil sifatida ham faoliyat yuritgan. Sug‘orma dehqonchilikni paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ilk shahar va davlatlarning shakllanishi aynan Amudaryo havzasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tarixiy-geografik manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, Amudaryo turli davrlarda turli nomlar — Oks, Araks, Datiya, Jayhun, Vaxsh, Balx daryosi, Amudaryo bilan atalgan. Antik yunon-rim manbalari daryoning geografiyasini ko‘pincha noaniq tarzda ifodalagan. Arab geograflarining IX–XI asrlardagi manbalari ancha ishonchli va batafsil bo‘lib, Amudaryo havzasidagi gidrologik o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Zardushtiylik manbasi Avestodagi Datiya daryosi haqidagi ma’lumotlar Amudaryo bilan bog‘lanishi mumkinligi ilmiy doirada muhokama qilinadi. Bu holat daryoning nafaqat tabiiy, balki diniy-madaniy ongda ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Y. G‘ulomov kabi olimlar Amudaryoni Nil daryosiga qiyoslab, uning deltaviy tizimi va mavsumiy toshqinlari Xorazm vohasi ijtimoiy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatganini asoslab bergan.

Umuman olganda, Amudaryo muammosini o‘rganish faqat tarixiy yoki geografik ahamiyatga ega emas, balki zamonaviy ekologik va ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda Orol dengizining qurib borishi va Amudaryo suv resurslarining kamayishi bu muammoni yanada dolzarb qilmoqda. Shu sababli qadimgi manbalarni o‘rganish bu nafaqat o‘tmishni tushunish, balki kelajakni rejalashtirish uchun ham muhim ilmiy asos hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Страбона. Γεωγραφία. Въ семнадцати книгахъ (переводъ съ греческаго Р. Г. Мищенка). – Москва: «К. Т. Солдатенкова», 1879.
2. Arrian. The Anabasis of Alexander: The history of the wars and conquests of Alexander the Great (E. J. Chinnock, Trans.). Hodder and Stoughton. 1884.
3. Толстов С. П. Древний Хорезм. – Москва: «Издание МГУ», 1948.

4. Пьянков И. В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. – Санкт-Петербург: «Петербургское лингвистическое общество», 2013.
5. G'ulomov Ya. G'. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: ЎзФАН, 1959.
6. Сагдуллаев А. Қадимги ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
7. Egamberdiyeva N. A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar). – Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo», 2020.
8. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: «ADIB», 2013.
9. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. – Toshkent: «Tafakkur», 2016.
10. Abdunazarov L. M. Markaziy Osiyo geografiyasi. – Toshkent: «Sharofat Nur Fayz», 2020.
11. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent: «Noshir», 2010.
12. Маджидов О. Ш. Куда впадала река Амударья: палеогеографическое исследование. – Душанбе: Центральноазиатский журнал географических исследований, 2021.
13. Bartold V. V. Svedeniya ob Aral'skom more i niz'yakh Amu-dar'yi. – Tashkent, 1902. (Nem. tarj.: Leipzig, 1910.)
14. Bartold V. V. Записки Восточного отделения Императорского Русского Археологического общества. Т. XXII. – Петроград, 1915.
15. Herrmann A. Alte Geographie des unteren Oxusgebiets. – Berlin: Weidmann, 1914.
16. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. – Санкт-Петербург, 1851.
17. Obruchev V. A. Закаспийская низменность. – Санкт-Петербург: Зап. И. Р. Г. Общ., 1890.
18. Borg L. S. Аральское море. – Санкт-Петербург: Императорское Русское Географическое общество, 1908.
19. Spuler B. «ĀMŪ DARYĀ». Encyclopaedia Iranica. 15 Dec. 1989. URL: https://iranicaonline.org/articles/amu-darya
20. Emel E. Amuderya. İslam Ansiklopedisi. – İstanbul, 1991. – S. 98. URL: https://islamansiklopedisi.org.tr/amuderya
21. Ibn Xurdodbeh. Kitāb al-masālik wa-l-mamālik. Tarj. M. J. de Goeje. – Leiden: Brill, 1889.
22. Maqdisiy. Aḥsan al-taqāsīm fī ma'rifat al-aqālīm. Bibl. Geogr. Arab. III. Ed. M. J. de Goeje. – Leiden: Brill, 1877.
23. Yoqut al-Hamaviy. Mu‘jam al-buldān. J. II. – Bayrut: Dār Ṣādir, 1977.
24. Ҳудуд ул-олам (Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов). – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2007.Б.